

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i> FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i> XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Соѳуб Раѳнов</i> КАМБАФАЛЛИК ВА УНИ ҚИСҚАРТИРИШ МУАММОЛАРИ	33-42
<i>Abdimov minov Oybek Bektemirovich</i> MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i> ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i> SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i> KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромович</i> ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжаниязов Элбек Сардорович</i> ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i> O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Абдурахманов Мухторали</i> ЎУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHIDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPTION MUNOSABATLAR PAYDO BO'lish SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Ғайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ҒОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i> O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIGA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdulkarimovna</i> BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i> IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i> MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i> СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i> БУРҲОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “KO'K” SIFAT BELGISINING SEMANTIKA XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i> HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломов Марьям</i> ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i> XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLILI	264-268
<i>Davronov Shexroz Abrorovich</i> OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i> NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i> К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i> O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLGIK BIRLIKLER	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'liqin qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i> INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Тухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i> ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i> XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i> LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i> O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'liqin o'g'li</i> INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Атаназарова Шохида Бахрамовна</i> РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna</i> ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i> SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i> RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i> ЛИТЕРАТУРНИЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i> ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommuna Xursanovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQIDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoiria Shukurillayevna</i> ONA TILI DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Imomov Nurillo Fayzullayevich

TA'MINLOVCHI TO'LOV – MAJBURIYATLARNI TA'MINLASHNING

YANGI USULI SIFATIDA 407-414

Салаев Нодирбек Сапарбаевич

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ,

ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР 415-431

Ходжиев Юнус Мухитдинович

МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНING ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН

АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ 432-436

Сайдивалиева Хуршида

БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ

МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ

МАСАЛАЛАРИ 437-445

Muqimov Bobur

THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 446-451

Raimova Nargiza Doroyevna, To'uchiyeva Bahora Otabekovna

PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS 452-459

Чориева Хуршидабону Хуррам қизи

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ

ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ 460-468

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich

UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO'LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING

AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI 469-478

Kubaeva Ismigul Farxod qizi

CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE 479-484

Юсупов Ўктамбой Абсаматович

ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ

КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ 485-491

Баходирова Сабина Улугбек кизи

РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО

ПОВРЕЖДЕНИЯ 492-503

Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ

ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 504-508

Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o'g'li

O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI 509-520

To'uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna

PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL

NETWORKS 521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшпулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> МАТЕМАТИКА FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	620-526

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIY Tajribasini qo'llash bo'yicha mavjud ta'lim talablarining tasnifi yuzasidan tahlillar	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i> O'rta asrlar markaziy osiyo mutafakkirlarining cholg'ushunoslikka oid nazariyalari: Abu Nasr forobiyning musiqiy tadqiqotlari	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i> Jahon axborot resurslari orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i> ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i> МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i> ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i> РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i> TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i> MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

SOME ASPECTS OF SCIENTIFIC APPROACHES AND CONCEPTUAL ISSUES TO THE CENTRAL ASIAN REGION

Abdimuminov Oybek Bektemirovich,

Doctor of Philosophy (PhD) of historical sciences,

Senior Researcher

Abstract. This article analyzes the geographical position, historical foundations, intellectual potential of the Central Asian region, scientific approaches and historical views of foreign and domestic scientists on the region. Various approaches to the place and role of the Central Asian region in historical and modern international relations, as well as on the world political arena are considered.

Keywords: Central Asia, scientific approaches, historical views, region, geographical and historical factors, scientists, UN, UNESCO.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI

Abdimom'inov Oybek Bektemirovich,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

katta ilmiy xodim

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasining geografik joylashuvi, tarixiy asoslari, intellektual salohiyati, mintaqaga xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari va tarixiy qarashlari tahlil qilingan. Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy va zamonaviy xalqaro munosabatlarda hamda jahon siyosiy maydonida tutgan o'rnini va roli o'zida turlicha yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, ilmiy yondashuvlar, tarixiy qarashlar, mintaq, geografik va tarixiy omillar, olimlar, BMT, YUNESKO.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N05>

Kirish. Tarixan umumjahon miqyosida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan e'tiborga molik bo'lgan muhim mintaqalar mavjud. Bu mintaqalar ko'pincha turli kuchlarning manfaatlari to'qnashgan raqobat maydoniga aylangan. Biroq mintaq va davlatlarning geografik joylashuv omili nisbatan muhim imperativlardan biridir. Chunki mintaqalarning geografik joylashuv koordinatalari ushbu hududda joylashgan davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy istiqbolini belgilab beradi. Siyosatshunos S.Safoyevning ta'kidlashicha, "Markaziy Osiyoning hozirgi rivojlanish yo'llarini tushunib yetish uchun uni tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilish juda muhimdir"[20; 6]. Shu jihatdan qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo umumjahon tarixida o'z o'rnini va salohiyatiga ega bo'lgan mintaqadir.

Markaziy Osiyo tarixan jahon xalqaro xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan. Mintaqaning tabiiy resurslarga boyligi, savdo-sotiq va iqtisodiy omillar, madaniy va intellektual potensial singari jihatlar jahon xalqlarining Markaziy Osiyoga qiziqishi va mintaqa bilan hamkorlik olib borishga va rivojlantirishda bosh omil bo'ldi.

Jahon xalqlari tarixida miloddan avvalgi II mingyillikdan boshlab ko'p asrlar mobaynida xalqaro munosabatlar tizimining bosh bo'g'iniga aylangan Buyuk Ipak yo'li mintaqaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muhim rol o'ynadi [4]. Buyuk Ipak yo'li eng avvalo iqtisodiy, so'ngra ijtimoiy, va madaniy institut sifatida Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tarixchi A. Xo'jayevning ta'kidlashicha, "uzoq vaqt davomida Xitoy bilan G'arbiy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalarida asosan Markaziy Osiyo xalqlari vositachilik qilgan" [24]. Bu yo'l tarmoqlari mintaqadagi turli etnoslarning o'zaro aloqalarga zamin yaratgan. Xususan, sug'dshunos M.Ishoqovning qayd etishicha, Ipak yo'lida asosiy savdo-sotiq ishlarida so'g'diylar [12] yetakchilik va vositachilik qilishgan. Ular Buyuk Ipak yo'li orqali dunyoning turli mamlakatlariga borib savdo ishlarini olib borganliklarini [17;7] sug'd manbalari bo'yicha mutaxassis A.Otaxo'jayev tasdiqlaydi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo madaniyati, san'ati va qadriyatlarini dunyoga tarqatishga hissa qo'shgan.

Muhokama. Markaziy Osiyo mintaqasi hududi tarixiy jarayonlar ta'sirida turli davrlarda turlicha nomlar bilan atalgan. Jumladan, Aleksandr Makedonskiyning yurishlari davrida Transoksiana (Oks – Amudaryoning narigi tarafi), milodiy asr boshlaridan Turon, Turkiston, arablar istilosi davrida Movarounnahr (daryoning narigi tomoni), keyinchalik O'rta Osiyo kabi nomlar bilan atalgan. Tarixiy asrlar davomidagi siyosiy jarayonlar mintaqaning tarixiy xaritasi [3] nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, hududiy, toponimik, onomastik va etnonimik kabi jihatlardan o'zgarib turishiga olib kelgan. O'rta asrlar olimlari va tadqiqotchilari mintaqa tarixiga jahon tarixining uzviy bir qismi sifatida e'tirof etila boshladi. XVI-XVIII asrlarda yevropalik kartograflar va sayohatchilar Markaziy Osiyoning tasviri va ta'rifi tushirilgan ko'plab xaritalar tuzdilar [13; 6].

Markaziy Osiyo mintaqasi jahonning madaniy taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Mintaqada IX-XII asrlarda Birinchi va XIV-XV asrlarda Ikkinchi Renessans yuz berdi. Markaziy Osiyo olimlari diniy va dunyoviy fanlar sohasida yangi ilmiy kashfiyotlarni insoniyat taraqqiyotga joriy qilishdi. Amir Temur davlatining barpo etilishi hamda diplomatiyasi [23] Markaziy Osiyo shon-shuhratini butun Yevrosiyo qit'asiga yoyilishida muhim omil bo'ldi. O'rta Osiyo xonliklari inqirozining so'ngi bosqichida Markaziy Osiyo dunyoning yirik davlatlari raqobat maydoniga aylandi. Bu jarayon tarixga "Katta o'yin" (*The Great game*) [7] nomi bilan kirdi.

"Katta o'yin" jarayoni jahon yirik mamlakatlarining Markaziy Osiyoga bo'lgan e'tibori kuchayishiga olib keldi. Dunyo Markaziy Osiyo mintaqasining eng avvalo geografiyasi, tarixi va xalqlarini ilmiy tadqiq qilishga kirisha boshladi. Shu asosda Markaziy Osiyo mintaqasiga turlicha yondashuvlar va qarashlar vujudga kela boshladi. Chunki, "yirik davlatlarning tashqi siyosati doim nufuzli tadqiqot markazlarining konsepsiyalari va taniqli olimlarning asarlariga asoslangan nazariy poydevorga ega bo'ladi. G'arb mamlakatlari diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun, masalan, A.Toynbining konseptual g'oyalarini, shuningdek hozirgi davrning taniqli olimlari F.Fukuyama, J.Mirxaymer, S.Xantington, Z.Bjezinskiy va boshqalarning asarlarini bilish muhimdir" [19;7]. Xususan, butunjahon tarixiy jarayonlarini metodologik yondashuvlar asosida tahlil etgan A. Toynbining fikricha, insoniyat tarixi

davomida sivilizatsiyalar paydo bo'lgan, ular zamonaviy dunyoda ham saqlanib qolgan. Xususan, kishilik tarixida 21 ta sivilizatsiyalar paydo bo'lgan, ulardan faqatgina to'rttasi (*g'arb-ellin, xristian-pravoslav, islom, hind*) zamonaviy dunyoda ham saqlanib qolgan. Uning qayd etishicha, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi makon tabiiy sharoitlarga ko'ra muhim yo'llar kesishadigan xalqaro chorrahada joylashganligi [21;50] bilan ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyo mintaqasining qulay geografik va geostrategik joylashuvi, tabiiy va intellektual omillari, tarixiy jarayonlari hamda xalqaro munosabatlardagi o'rni S. Xantington, Z.Bjezinskiy, X. Makinder, G. Morgentau, J. Nay, G. Kisserjer [5] kabi olimlarning tarixiy tushunish va tahlil etish metodologiyasiga bag'ishlangan asarlarida ham qayd etilgan. Jumladan, S. Hantingtonning ta'kidlashicha, "insoniyat tarixi – sivilizatsiyalar tarixidir. Bashariyat rivojlanishini boshqachasiga tasavvur qilish imkonsiz. Asrlar davomida sivilizatsiyalar eng yuqori darajadagi insonlarni birlashtiruvchi identifikatsiya, ya'ni o'zlikni anglash vositasi bo'lib kelgan"[24;43]. S.Hantington sivilizatsiyalarni insoniyat tarixi va kelajagini ma'lum ma'noda tartibga solib boruvchi eng birlamchi vosita sifatida ta'riflaydi. Sivilizatsiyalarsiz dunyo rivojlanmaydi, ularning to'qnashuvi esa, xaos jarayonlarini yanada kuchaytiradi. Yangi dunyo tartibotida sivilizatsiyalarning o'rni nihoyatda muhimdir. Uning fikricha, insoniyat tarixi davomida kamida 12 ta sivilizatsiyalar paydo bo'lgan, ulardan 7 tasi (Xitoy, Yapon, Hind, Islom, G'arb, Lotin Amerikasi va Afrika) hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Islom sivilizatsiyasining rivojlanishida Markaziy Osiyoning o'rni nihoyatda muhim. Hantington "sovuq urush"dan keyin vujudga kelgan yangi dunyo tartiboti tizimida Markaziy Osiyoda o'tish davri urushlari natijasida yuzaga kelgan bo'linish chiziqlari (*fault line*) borasida fikr yuritib, mintaqadagi nizolarni tahlil qiladi. Xususan, Afg'oniston muammosi, Tojikistondagi fuqarolar urushini yakunlash va unda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiyaning [24; 476-477 b] o'rni masalalarini ko'rsatib beradi. Har ikkala olimga ko'ra ham Markaziy Osiyo mamlakatlari islom sivilizatsiyasiga mansub. Ulardan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston uning turkiy xalqlar subsivilizatsiyasiga, Tojikiston esa, hind-eron subsivilizatsiyasiga mansubdir. Biroq ularni yagona mintaqaviy makon, geografik yaqinlik, qo'shnilik, umumiy tarix, din, til, urf-odatlar va qadriyatlar birlashtirib turadi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasining realizm maktabi (*realism school of thought in international relations theory*) vakili, AQSh geosiyosiy gegemonligi formulasi muallifi Z. Bjezinskiy fikricha, Markaziy Osiyoning besh davlati – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, shuningdek, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya va Afg'oniston kabi to'qqiz davlatlar "Yevrosiyo Bolqonlari" hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, "Markaziy Osiyodagi yangi tashkil topgan beshta mustaqil davlatdan O'zbekiston va Qozog'iston eng muhim rol o'ynaydi. Mintaqada uyg'onib kelayotgan turfa xil milliy tuyg'ular uchun Qozog'iston – qalqon, O'zbekiston jon bo'ldi" [11;178]. Z.Bjezinskiy qayd etishicha, O'zbekistonning mustaqilligi Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarning yashab ketmog'i uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari u Rossiya uchun bosim o'tkazishga eng qiyin davlatdir. Amalda O'zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy yetakchilikka asosiy nomzod hisoblanadi. Qozog'istonning geografik joylashuvi esa boshqa mamlakatlarni Rossiya tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan bosimdan himoya qiladi. Turkmaniston esa Rossiyadan olisda joylashgan hamda O'zbekiston va Eron uning kelajagi uchun katta geosiyosiy ahamiyatga ega. Qirg'iziston esa Xitoy va Qozog'iston oralig'ida siqilib qolgan. Uning mustaqilligini saqlab qolishi Qozog'istonga ko'proq bog'liq. Tojikistondagi etnik xususiyatlar esa mamlakat taraqqiyotiga to'siq bo'ladi. U

Markaziy Osiyoning kelajagi yanada murakkab ekanligi, mintaqa davlatlarining shakllanishi va taqdiriga Rossiya, Turkiya, Eron va Xitoy muhim ta'sir o'tkazishini, Markaziy Osiyoning tarixi umumiy, taqdiri esa bir ekanligiga ishora qiladi.

AQShlik olim va xalqaro munosabatlar bo'yicha ekspert, AQShdagi Jon Xopkins universiteti professori, Markaziy Osiyo va Kavkaz tadqiqotlari instituti ta'asischi direktori, Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlangan bir necha muhim tadqiqotlar muallifi Frederik Starr fikricha, Markaziy Osiyo bir necha asrlar mobaynida dunyo intellektual va madaniy xabi (markaz) hisoblangan [9;5]. Shuningdek, "Markaziy Osiyo farzandi Beruniy antik dunyoda va buyuk Yevropa kashfiyotlari asri o'rtasida eng buyuk kashfiyotchi bo'lgan, deb aytish mumkin"[10]. Frederik Starning qayd etishicha, Markaziy Osiyo olimlari xususan, Beruniy qadimgi dunyo va Yevropa tadqiqotchilari o'rtasida ko'prik bo'lgan. Demak, Markaziy Osiyo madaniy nuqtai nazardan jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biridir.

Mashhur iqtisod tarixchisi, professor Endryu Gyunter Frankning fikricha, Markaziy Osiyo haqiqatan ham asrlar davomida qit'aning turli qismlari, shuningdek, Osiyo va Yevropa o'rtasidagi muhim bo'g'in bo'lib kelgan. U mintaqaning maqomini "Markaziy Osiyoning markaziyliigi" (*Centrality of Central Asia*) [2] tushunchasi bilan ifodalashga harakat qiladi. Nemis olimi Adam Metsning so'zlariga ko'ra, klassik Yevropa uyg'onishining gumanizmi Markaziy Osiyodagi falsafiy uyg'onishsiz amalga osha olmas edi. Ushbu mutaxassislarining bayonoti, Sharq va G'arb rivojlanishining bir tomonlama yo'naltirilgan tushunchalariga qarshi bo'lib, dunyoning turli mintaqalarida tarixiy jarayonlarning birligi va o'zaro bog'liqligi hamda oldindan belgilab qo'yilgan elementning yo'qligi haqidagi tezisimizni mustahkamlaydi. Biz uchun faqatgina muloqotni davom ettirish va kengaytirish zarurligi va Markaziy Osiyodagi barcha xalqlarning tinch va barqaror rivojlanishi uchun murakkab muammolarni hal qilishda o'zaro tushunishga intilish umididan holi emasligi ravshan [18].

YUNESKO tomonidan nashr etilgan "Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi" [6;28] nomli fundamental asarning birinchi jildida ta'kidlanishicha, "Markaziy Osiyo" atamasi ilk marotaba geograf Aleksandr fon Gumbolt tomonidan 1843-yil Parijda nashr etilgan uch jildlik "Markaziy Osiyo. Tog' tizmalarini o'rganish va iqlimlarni taqqoslash" [1] asarida qo'llanilgan. Shundan so'ng ushbu atama asta-sekin jahon faniga dastlab geografik, keyinchalik esa siyosiy atama sifatida ilmiy va ijtimoiy iste'molga kirib keldi.

Mintaqa hududi sovet davrida siyosiy va hududiy jihatdan to'rt respublika Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni qamrab olgan "O'rta Osiyo" tushunchasi bilan ham ishlatilib, o'z tarixiy hududlariga nisbatan qisqartirilgan holda qo'llanilgan. Biroq, bir guruh olim va ekspertlar fikricha, geografik nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo ancha katta mintaqa, jumladan, hozirgi Markaziy Osiyodagi besh davlat hududidan tashqari, Afg'oniston Mo'g'uliston va Xitoyning g'arbiy qismini qamrab oladi. Bu borada YUNESKO tomonidan nashr etilgan ayrim adabiyotlar ham shu fikrga ishora qiladi. AQShlik olim Fredrik Star 2005-yilda Afg'oniston, Mo'g'uliston va Sharqiy Turkistonni ham ushbu mintaqaga qo'shgan holda "Katta Markaziy Osiyo" (*Greater Central Asia*) konsepsiyasini [8] ilgari surdi.

Ayrim G'arb ilmiy adabiyotlarida esa hanuzga qadar mintaqa Post-sovet mamlakatlari (*Post-Soviet countries, Postsovestkiye strany*) atamasi bilan sobiq sovet ittifoqi davlatlarining bir qismi sifatida ham qaralib kelindi. Biroq, 1993-yil Toshkentda bo'lib o'tgan mintaqa mamlakatlari boshliqlarining uchrashuvida "Markaziy Osiyo" atamasining xalqaro lug'atga

kiritilishi [20;11] uning geosiyosiy, makroiqtisodiy va sivilizatsiyaviy mavqeyini yanada mustahkamladi.

XX asr so'ngida Markaziy Osiyo mintaqasida yirik siyosiy voqealar, ulkan geografik o'zgarishlar sodir bo'ldi. SSSR parchalanib, mintaqada yangi suveren, mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bu nafaqat mintaqaning, balki jahonning siyosiy va geografik xaritasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Markaziy Osiyo mintaqasida tashkil topgan yangi mustaqil davlatlar o'zining yangi taraqqiyot yo'li hamda milliy rivojlanish modellarini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdilar. Biroq mustaqil taraqqiyot yo'lida turgan davlatlarning oldida eng muhim ustuvor vazifa mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik va barqaror taraqqiyot masalalari edi. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasida jahon hamjamiyati bilan o'zaro teng huquqli hamkorlik aloqalarini mustaqillikning ilk kunlaridan yo'lga qo'ydi [16;3].

Xulosa. Zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida Markaziy Osiyoda yangi tendensiyalar vujudga keldi. Global va mintaqaviy o'zgarishlar sharoitida Yangi Markaziy Osiyo muhiti shakllandi. O'zbekiston Markaziy Osiyoni tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etdi. BMT doirasida mintaqaga oid yirik tashabbuslarni ilgari surmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "xalqaro siyosiy lug'atda mintaqaviy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiluvchi o'ziga xos modelni aks ettiruvchi yangi "Markaziy Osiyo ruhi" atamasi paydo bo'ldi" [15;464]. Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan yangi ikki va ko'ptomonlama munosabatlar va o'zaro hamkorlikning amaliy samaralari xalqaro e'tirof etilmoqda. Jumladan, mintaqada tashqi siyosati bo'yicha ekspertlarning ta'kidlashicha, "yangi geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo'li davrida mintaqada egallagan o'rinni – Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi ko'priq, turli iqtisodiy manfaatlar chorrahasi maqomini yana o'ziga qaytarmoqda. BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Kaxa Imnadzening ta'kidlashicha, "Markaziy Osiyo ko'p jihatdan mintaqaviy hamkorlikning noyob modeli va mintaqada yashovchi barcha xalqlar farovonligi yo'lida yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini qanday qurish kerakligi borasida dunyoning boshqa mintaqalari uchun namuna bo'la oladi" [14].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Alexander von Humboldt. Central-Asien: Untersuchungen über die Gebirgsketten und die vergleichende Klimatologie. Germany. Salzwasser-Verlag, 2009.
2. Andre Gunder Frank. The Centrality of Central Asia. Vu University Press for Central Asian Studies Amsterdam. 1992.
3. Bregel Y. An historical atlas of Central Asia. Edited by Denis Sinor Nicola di Cosmo. Handbook of Oriental Studies. Section eight. Central Asia. Vol.9. Brill, - Leiden. –Boston. 2003.
4. Frankopan P. The Silk Road. A New History of the World. – USA. New York. Vintage books edition. 2017.
5. Fukuyama F. The end of history and the last man. – New York. Macmillan Inc, 1992; Thomas L. Friedman. The Lexus and the Olive tree. – New York. First Anchor books edition, 1999; Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – Москва: Издательство АСТ, 2003; Бжезинский З. Великая шахматная доска. (Господство Америки и его геостратегические императивы). – Москва: Международное отношение. 1998.

6. History of civilizations of Central Asia. The dawn of civilization: earliest times to 700 B.C. UNESCO. – Paris. 1992.
7. Hopkirk P. The Great Game: The Struggle for Empire in Central Asia. Kodansha International. 1994; Hopkirk P. Katta o'yin. Ikki imperiya to'qnashuvi. – Toshkent: Asaxiy Books. 2023.
8. Starr S. Frederick. A Greater Central Asia Partnership for Afghanistan and its Neighbors. CACI and Silk Road Program. 2005; In Defense of Greater Central Asia. CACI and Silk Road Program. 2008; Starr S. Frederick. In Defense of Greater Central Asia. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program. September 2008; Starr S. Frederick. Rethinking Greater Central Asia: American and Western Stakes in the Region and How to Advance Them. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program. 2022.
9. Starr S. Frederick. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. USA. Princeton University Press. 2015.
10. Starr S. Frederick. So, Who Did Discover America? Published in History Today Volume 63 Issue 12 December 2013.
11. Bjezinskiy Z. Buyuk shaxmat taxtasi. Amerika hukmronligi va uning geostrategik imperativlari. – Toshkent: 2022.
12. Ishoqov M. So'g'diyona tarix chorrahasida. – Toshkent: Fan. 1990. Ishoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent Fan. 1992.
13. Kamoliddin Sh. Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. – Toshkent: 2023.
14. Komilov A. O'zbekiston tashqi siyosatida Yangi Markaziy Osiyo. Yangi O'zbekiston. 2024-yil 14-avgust, 162-son.
15. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston. 2024.
16. Norov V. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor jihatlari // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1996. № 11-12.
17. Otaxo'jayev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. Monografiya. –T.: Art-Flex, 2010.
18. Raximov M. Markaziy Osiyoning eng yangi tarixi va xalqaro munosabatlarini fanlararo o'rganish masalalari. O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari. 2019, № 1 (4).
19. Safojev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. 2005.
20. Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
21. Тойнби А. Постигание истории. Перевод с английского Е. Д. Жаркова. – М.: Айрис-Пресс, 2010.
22. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston diplomatiyasi tarixi. VII jild. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Ma'naviyat. 2023.
23. Xo'jayev A. Buyuk Ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
24. Hantington S. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi. – Toshkent: Yangi asr avdoli. 2023.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).